

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

O'ZBEKISTONDA MILLIY TADQIQOTLAR:

DAVRIY ANJUMAN

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022

MENDELEEV DMITRIY IVANOVICH
(1834-1907)

2022

FEVRAL

№37



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.

+998 97 420 88 81
+998 94 404 00 00

www.tadqiqot.uz
www.conferences.uz



**ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ
АНЖУМАНЛАР:
12-ҚИСМ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ
КОНФЕРЕНЦИЙ:
ЧАСТЬ-12**

**NATIONAL RESEARCHES OF
UZBEKISTAN: CONFERENCES
SERIES:
PART-12**

ТОШКЕНТ-2022



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 37-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 28 февраль 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 11 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25. География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МАДАНИЯТ ВА САЊАТ СОҲАЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

1. O'rinov Yo'ldoshjon Muxammadovich IBN SNO HAYRATI.....	7
2. Sayfullayev Shaxzod Baxtiyorovich O'RTA OSIYODA ILK RENESSANS DAVRI ULUG' SIYMOLARI.....	9



МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ СОҶАЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

IBN SINO HAYRATI

O'rinov Yo'ldoshjon Muxammadovich
Kamoliddin Behzod nomidagi Milly
Rassomlik va Dizayn instituti magistranti
1-kurs. Filmning tasviriy yechimi yo'nalishi
Telefon:+998998739660

ANNOTATSIYA: Ibn Sino o'zini davrida nafaqat sharqda balki g'arbda ham juda mashxur bo'lgan. Hozirgi kungacha uning Tib qonunlari asari tibbiyotda keng foydalanib kelinmoqda. Ibn Sinoning merosini o'rganish, asrash va kelgusi avlodga uning merosini qoldirish har birimizning vazifamizdir. Shu maqsadda Ibn Sinoni hayotini gavdalandiruvchi badiiy film olish uchun desertasiya mavzusi sifatida tanlaganman va shu orqali vatanimizni buyuk siymolarini butun dunyo ko'radi.

KALIT SO'ZLAR: Tib qonunlari, Shayx ar-ra'is, metafizika, hakim, faylasuf, yopiq kalit.

Ibn Sino nomini eshitmagan odam bo'lmasa kerak. Yoshligimizdan maktab darsliklarida, yana fanga doir kitob va jurnal, gazetalarda Ibn Sino nomiga ko'zimiz tushardi. Mir Alisher Navoiy so'z mulkingning sultoni bo'lsa, Ibn Sino tabobat ilmining podshoxi ekanini, uning «Tib qonunlari» asari butun dunyoga mashxurligini bilib bordik kelgusi yillarda... Xo'sh Ibn Sino kim bo'lgan asli?! Buyuk hakim, olim va faylasuf ibn Sino Buxoro shahri yaqinidagi Afshona qishlog'ida tavallud topgan. 19 yoshga to'lganida ona shahri Buxoroni qoraxoniylar bosib oladi va buyuk tib qiroli uchun o'sha davrda kitobdan ortiq narsa kerak bo'lmagan insonga kerak bo'lgan kutubxona va shaharning ko'plab madaniy boyliklarini vayron qilib tashlashadi. "Bu haqida Mirkarim Osim Ibn Sino qissasida yozib ketgan.

Bu vaqtga kelib, ibn Sino iste'dodli hakim va faylasuf sifatida tanilib ulgurgandi. Ko'p o'tmay Sharqda uni «Shayx ar-ra'is», ya'ni «Donishmandlar yetakchisi» deb atay boshladilar. Ibn Sino juda ko'p mutolaa qilardi. U ilm cho'qqilariga mustaqil o'qib-o'rganish yo'li bilan yetib bordi. Bu haqda allomaning o'zi shunday yozadi: «O'n yoshimda Qur'onni o'rgandim, badiiy adabiyotlarni o'qib chiqdim. Keyin mantiq ilmiga oid kitoblarni mutolaa qilib, mustaqil ravishda bu ilmning nozik qirralarini o'zlashtira bildim. Shundan so'ng tibbiyot ilmiga murojaat qilib, ko'plab kitoblarni o'qishga tutindim. Qisqa vaqt ichida mening tibbiyot sohasidagi bilimlarim va davolash san'atim shunday sarhadlarga yetdiki, o'sha davrning eng hurmatli hakimlari mening huzurimga maslahat so'rab kela boshladilar ». Men hakimlik amaliyoti bilan ham tinmay shug'ullandim va nihoyat menga insonlarni davolash ilmining darvozalari keng ochildi. Bu vaqtda endigina 16 yoshga to'lgandim. Ana shu yoshimda tunlari uyqu, kunduzlari halovat neligini bilmay faqat ilm bilan mashg'ul bo'ldim, inson tabiati o'z bilimlarini mustahkamlash va ilm yo'lida olg'a borishga qay darajada qodir bo'lsa, men ham shu darajada harakat qilib, ter to'kdim. Ibn Sinoning falsafiy jihatdan shakllanishi oson kechmadi. U bir tasodif tufayli falsafa olamiga kirib bordi. Bu haqda o'zi shunday yozadi: «Arastuning «Metafizika» asarini o'qib chiqdim. Ammo muallifning maqsadi men uchun jumboqligicha qolaverdi. Asarni to yod bo'lguncha qayta-qayta o'qidim. Lekin baribir hech narsaga tushunmadim. Shundan so'ng bu tushunarsiz asar ekan degan xulosaga kelib, uni tashlab qo'ydim. Bir kuni muqovasozlar bozoridan o'tayotib, bir savdogarning o'z kitoblarini maqtayotganini eshitib qoldim. Do'konga yaqin bordim. Savdogar menga kitoblardan birini ko'rsatdi. Bu Abu Nasr Forobiyning «Metafizikaning asosiy qoidalari» deb nomlangan asari edi. Men jahl aralash bu tushunarsiz ilmdan hech qanday foyda yo'qligini aytib, kitobni rad etdim. Sotuvchi esa qo'yarda-qo'ymay kitobni arzon bahoda sotib olishga undardi. Axiyri kitobni bor-yo'g'i uch dirhamga sotib oldim. Uyga qaytib, kitobni mutolaa qilishga kirishdim: u menga o'z sirlarini ochdi va men falsafaga oid barcha savollarimga javob



topdim». Ibn Sino o'g'itlariga ko'z yugurtiramiz: «Donishmandlik bizga hayot so'qmoqlarida ulug' saodatni hozirlab in'om etuvchi vositadir». Donishmadlar aytatidiki kimki ilmi hayotga tadbiq etadigan odam olim.«Barcha fanlarning asosiy qonun-qoidalari metafizikaga asoslanadi (metafizika tabiatdan tashqaridagi hodisalar haqidagi fan). Garchi uni keyin o'rgansalar-da, aslida u birinchi o'rinda turadi.»

Ibn Sinoning ajoyib mutafakkirligini va aqlni ishlatishga qaratilgan da'vatini mana bu o'gitdan bilishimiz mumkin: Ilm olish ilmiy ijod olim uchun mushkul bo'lgan. «Aql tarozusi ko'rilmagan har qanday bilim asossizdir. Shu bois mantiq ilmini o'rganmoq juda muhim.» Hakim doim bir shior bilan yashaganini kuzatamiz:

«Hakimning uch quroli bor: so'z, g'iyoh va tig'».

Yuqoridagi gaplardan ma'lumki, Abu Ibn Sino tarixda yorqin iz qoldirgan buyuk allomalarimizdan biri bo'lib, uning boy ilmiy merosi insoniyatga hamon g'urur va iftihor bag'ishlab kelmoqda. Alloma Sharq va G'arb ilm-fani, ma'rifatini, madaniyat taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatgani bois, o'z davrida "Shayx ur-ra'is", "Olimlar boshlig'i", "Tabiblar podshohi" kabi yuksak maqomlarga sazovar bo'lgan. "Tib qonunlari" asri esa asrlar davomida tabobatning mufassal qomusi bo'lib qolmoqda. Va takidlab o'tish joizki Ibn Sinoning asarlari nafaqat o'zimizda balki Yevropada ham juda ommalashgan va g'arbda AVITSENA nomi bilan mashhur. Ibn sino asarlari hali hanuz tibbiyot rivoji uchun o'z xissasini qo'shib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar.:Mirkarim Osim "Ibn Sino qissa



O`RTA OSIYODA ILK RENESSANS DAVRI ULUG` SIYMOLARI.

Sayfullayev Shaxzod Baxtiyorovich

Milliy Rassomlik va dizayn instituti

Amaliy san`at va dizayn fakulteti

Haykaltaroshlik yo`nalishi

1 bosqich magistranti.

Annotatsiya. Ushbu maqola orqali O`rta Osiyoda ilk Renessans davri haqida ko`plab ma`lumotlarga ega bo`lishingiz mumkin. Bu davrda ilm fanga katta hissa qo`shgan buyuk olimlarimiz haqida, ularni bir joyga to`plagan mashhur Ma`mun Akademiyasi haqida batafsil yoritilgan.

Kalit so`zlar. Renessans, Arab xalifaligi, arab tili, xattotlik, Somoniylar, Xorazmshohlar, Ma`mun akademiyasi, Beruniy, Ibn Sino, Rudakiy, Narshaxiy.

“Mamlakatimizdagidek boy tarix, bobolarimizdek buyuk allomalar hech qayerda yo`q”.

Sh.M.Mirziyoyev.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti.

Tarix zarvaraqlarini ohista varaqlar ekanmiz, yurtimiz tarixi, o`tmishi, uning ma`naviy va madaniy boyliklari, milliy qadryatlari naqadar ulkan ildizga ega ekanligini guvohi bo`lamiz.. IX-XII asrlar O`rta Osiyo xalqlari tarixida moddiy va ma`naviy hayotning rivojlanishida oldingi davrlarga nisbatan jadal suratlarda yuksaldi. Bunga muhim sabablardan biri VIII asrda Arab xalifaligi hozirda O`rta Osiyo deb atalmish hududni fath etib bo`lganligi, bosib olingan yerlarda islom dini keng yoyilib, ijtimoiy-iqtisodiy va ma`naviy hayot Arab xalifaligi tartib-qoidalariga butunlay bo`ysundirilganligidir. Ushbu hududlarda faqatgina islom dini emas, balki arab tili va imlosi o`rgatila boshlandi. Arab tili davlat davlat tili sifatida e`lon qilingan. Bu esa yangi san`at turi xattotlik san`atini rivojlanishiga turtki bo`lgan. Shu sababli bu mamlakatlarda arab tilini o`zlashtirishga intilish kuchli bo`lgan. Islomni qabul qilgan aholining arab tili bilan muloqoti, ibodat vaqtlarida qur`on suralarini tilovat qilishdan iborat bo`lgan bo`lsa, mahalliy zodagonlar arab tilini xalifalik ma`murlari bilan yaqinlashish va mamlakatda o`z siyosiy mavqelarini tiklab uni mustahkamlashning garovi deb hisoblaydilar. Arab tiliga bo`lgan bunday ehtiyoj va intilish tufayli ko`p vaqt o`tmay Movarounnahrda xatto o`z ona tilidan ko`ra arab tili va yozuvi o`zlashtirib olgan bilimdonlar paydo bo`ldi. Chegaralari borgan sari kengayib, ulkanlashib borayotgan xalifalik uchun ilm ahli suv va havodek zarur bo`lib qoldi. Davlatni boshqarishda xalifalik ma`muriyati bilimdon siymolarga muhtoj edi. Chunki arablar orasida bu paytda davlat ishiga yaroqli bo`lgan bilimdonlar ham oz bo`lib, borlari ham zaif edi.¹

Movorounnahrda ulkan sulola Somoniylar hukmronligi davrida barcha sohalar singari ilm-fan ham o`zining yuksak cho`qqisiga erishdi. Tarixchi Abu Mansur as-Saolobiyning Somoniylar Buxorosiga bergan ta`rifi butun O`rta Osiyo davlatlarining IX-XIII asrlardagi ahvoliga tegishlidir: “...shon-shuhrat makoni, saltanat ka`basi va zamonasining ilg`or kishilari jamlangan, yer yuzi adiblarining yulduzlari porlagan hamda o`z davrining fozillari yig`ilgan (joy) edi”. Adolatli hukmdorlar mamlakatni boshqarishda bevosita ilm ahli bilimi va maslahatlaridan foydalandilar. Hukmdorlarning aksariyati bu davrda o`z saroylarida olim, shoir va usta san`atkorlar, turli sohalar bo`yicha qimmatbaho kitoblarni to`plashga odatlandilar. Shu orqali saroyda ulkan kutubxonalar paydo bo`la boshladi. Saroyga jalb etilgan olim va shoirlar, kutubxonalardagi nodir qo`lyozma asarlar bilan mag`rurlanardilar. Keyinchalik Movorounnahrning katta shaharlarida ilm fan markazlari paydo bo`la boshladi. Shulardan biri X asr oxirlarida Xorazmda xalifa Ma`mun davrida (995-997-y.) “Donishmandlar uyi”- “Bayt ul-Hikma”-“Ma`mun akademiyasi” (Xorazm akademiyasi) tashkil topdi.² Bu ikki ilm o`chog`larida Sharqning ma`lum va mashhur, bugungi kun ilm faniga o`zining katta hissasini qo`shgan olimu-allomalari tahsil ko`rganlar. Ular orasida Beruniy, Ahmad al-Farg`oniy, Al-Xorazmiy, Ibn Sino, Rudakiy, Farobiy, Narshaxiy kabi buyuk

¹ Aim.uz “O`rta Osiyo xalqlari hayotida IX-XII asrlarda yuz bergan uyg`onish davri” maqola.

² O`zbekiston tarixi 7 sinf darslik.



allomalarning nomlari bor.

XI asrning boshida Xorazmda «Dorul hikma va maorif» (ba'zi bir manbalarda «Majlisi ulamo») nomini olgan ilmiy muassasa to'la shakllangan. Ilmiy muassasada xuddi Afinadagi «Platon», Bag'doddagi «Bayt ul hikma» akademiyasi faoliyatiga o'xshab ilmning barcha sohalarida tadqiqot va izlanishlar olib borilgan. Olimlar juda ko'plab tarixiy manbalarni to'plashgan, turli xil tarjima ishlarini olib borishgan. Al-Xorazmiy, Al-Farg'oniy, Beruniy kabi olimlarning o'lmas asarlari, ilmiy ishlaridan foydalanilgan va tadqiq qilingan. Al-Xorazmiy buyuk matematik va olim bo'lgan. U IX asrning yirik musulmon olimi, astronom, matematik, geograf bo'lgan. Uning o'rta asrlar ilmiga qo'shgan hissasi juda kattadir. Uning sharofati bilan Yevropa o'nlik hisob va sonlar nima ekanligini bilib oldi, algebra va algoritm atamalari uning ismi va ilmiy kitobi nomidan olindi.¹ Ma'mun akademiyasida olimning algebra va astronomiyaga oid ko'plab ilmiy asarlari yozilgan. Al-Xorazmiyning “Al-jabr val-Muqobala” kitobi o'rta asrlarda G'arbda shu qadar mashhur bo'ldiki, bir necha asrlar davomida u Yevropa universitetlari talabalari uchun klassik matematik qo'llanma bo'lib xizmat qildi.

Adolatli siyosat yuritish, hukmdorlar qanday fe'l-atvorga ega bo'lishi haqida muhim risola sanalmish “Fozil odamlar shaxri” asarining muallifi Al-Farobiy ham ushbu akademiyada taxsil olib keyinchalik talabalarga bilim bergan. Forobiy fanning nazariy va falsafiy tomonlarini yoritishga harakat qilgan. U Platon, Aristotelning barcha falsafiy, tabiiy, ilmiy asarlariga, Ptolemeyning osmon jismlari harakati, Aleksandr Afrodiyning ruh haqidagi psixologiyasiga oid, Galenning tibbiyot bo'yicha asarlari, Epikur, Zenon, Yevklid risolalariga taqriz va sharhlar yozdi. Agar ilm-fan rivojidadagi o'zining qo'shgan buyuk xizmatlari uchun Aristotel “Birinchi muallim” unvoniga sazovor bo'lsa, Forobiy donishmandligi, Aristotelni yaxshi bilganligi, qomusiy aqli va ilm-fan taraqqiyotiga qo'shgan katta hissasi uchun “Al-muallim as-Soniy - “Ikkinchi muallim”, “Sharq Aristoteli” degan buyuk unvon oldi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, O'rta Osiyoda ilk Renessans davri bugungi kun ilm fanida muhim asos bo'lgan. Ismoil Somoniy, Mahmud G'aznaviy kabi adolatli hukmdorlar o'z atrofiga ilm ahlini to'plab, turli badiiy kechalar uyushtirishgan. Saroyda katta kutubxona yaratib, u yerda qo'lyozma asarlar yozishgan. Bulardan tashqari O'rta Osiyoda eng katta ilmiy muassasa bo'lmish Ma'mun akademiyasi ham faoliyat olib borgan. XVIII- XX asr tarixchi olimlari tomonidan ilmiy muassasa har tomonlama o'rganilgan va o'z faoliyati nuqtai nazaridan bu dargoh o'z davrining akademiyasi bo'lganligi isbotlangan va unga «Ma'mun akademiyasi» nomi berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. “O'rta Osiyo xalqlari hayotida IX-XII asrlarda yuz bergan uyg'onish davri”
2. “O'zbekiston tarixi” 7 sinf darslik
3. “Xorazmshohlar tarixi” ilmiy risola
4. Uz.travel. sayti.

¹ Uz.travel. sayti

ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 12-ҚИСМ

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 28.02.2022

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000
